

O'QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINING PSIXOLOGIK ASOSI

Saloxiddinova Aziza Oybek qizi, magistr
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning bilish faolligi – ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning psixologik asosi to'g'risida so'z yuritilib, bilish tafakkurning bilinayotgan predmetga yaqinlashuvi, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan, to'la va mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Bilish, tafakkur, fikr, to'la va mukammal bo'lmagan bilim, cheksiz jarayon.

Аннотация: В статье говорится о познавательной деятельности учащихся - психологической основе овладения социальным опытом, знание есть приближение мышления к познаваемому объекту, мысль переходит от незнания к знанию, от полного и несовершенного знания, полного и представляет собой никогда - завершающий процесс движения к совершенному знанию.

Ключевые слова: Знание, мышление, приближение к объекту, мысль, полное и несовершенное знание, бесконечный процесс.

Annotation: The article talks about the cognitive activity of students - the psychological basis for mastering social experience, knowledge is the approximation of thinking to a cognizable object, thought moves from ignorance to knowledge, from complete and imperfect knowledge, complete and represents a never - final process of movement towards perfect knowledge.

Keywords: Knowledge, thinking, approaching an object, thought, complete and imperfect knowledge, endless process.

Insoniyat azal-azaldan o'zini qurshab turgan olam haqida tobora ko'proq narsalarni bilishga intilib kelgan. Bu esa yillar o'tib borishi bilan yangidan-yangi, murakkab ixtiro va kashfiyatlarni yaratilishiga olib kelmoqda. Bugungi kungacha insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ixtirolar ularning olamdagi narsa va hodisalarni bilmaslikdan bilishga qarab, kam bilishdan tobora ko'proq bilishga tomon bo'lgan ehtiyojlari, qiziqishlari, hamisha intilib yashashga undagan bu jarayon – bilish jarayonining nima ekanligini to'la anglab olish juda muhimdir.

Bilish nima? Bilish – moddiy olamning inson ongida in'ikos etish jarayonidir. ya'ni:

- ob'ektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog'liq bo'lmagan holda undan tashqarida mavjud. Ob'ektiv olam inson sezgi va tasavvurlarning manbai;

- inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin.

Inson sezgi, tasavvur va tushunchalarida o'ziga bog'liq bo'lmagan tashqi olam mazmunini in'ikos ettiradi.

Bilish tafakkurning bilinayotgan predmetga yaqinlashuvi, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan, to'la va

mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi. Bilish eskirib qolgan nazariyani yangi nazariyalar bilan almashtirib eski nazariyalarni yanada aniqlab, olg'a qarab boradi hamda voqelikning tobora yangidan-yangi tomonlarini ochadi.

Bilish ikki bosqichdan: jonli mushohada (sezish) va mavhum tafakkur (fikrlar)dan iboratdir.

Bilishning boshlang'ich bosqichi jonli mushohada, ya'ni ob'ektiv dunyoning buyumlarini bevosita sezgi a'zolari yordamida aks ettirishdir.

Ibn Sinoning fikricha, "sezish – bu shunday ta'sirki, u tashqi narsalarning o'zi bo'lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. his moddiy obrazning oynasi bo'lib, moddiy shakllarning bo'yi, uni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in'ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi".

Faylasuflarning ta'kidlashicha, jonli mushohadaning bilishdagi roli muhimdir, uni yordamida dunyo haqida aniq bilimlar kelib chiqadi. Lekin bilishning bu bosqichi ma'lum darajada cheklangan. Bu bosqichda narsa va hodisalarning ba'zi bir tomonlari va xususiyatlarinigina bilib olish mumkin.

Mavhum tafakkur hissiy bilishdan sifat jihatdan farq qiladi. U bevosita aniq bitta predmetdan uzoqlashib, bir nechtasiga xos bo'lgan umumiylikning mohiyatini ochib beradi. Bundan tashqari sezgi obrazlari tashqi olamning in'ikosidir, ya'ni tashqi olam sezgimizga qanday ta'sir qilsa, shundayligicha aks etiladi. Tafakkur obrazlarida esa boshqacharoq, unda tashqi olamning ichki mohiyati, aloqa va bog'lanishlari hamda rivojlanish qonun va qonuniyatlari aks etadi. Falsafaga doir kitoblarda tafakkur obrazlarining uchta asosiy xususiyati ajratib ko'rsatiladi:

1. Tafakkur obrazlari mavhumlik xususiyatga ega, ya'ni tafakkur obrazlari hosil bo'lishi uchun ifoda qilinayotgan tashqi olam bevosita ko'z oldimizda bo'lishi shart emas.

2. Tafakkur obrazlari umumlashgan xususiyatga ega. Umumlashtirish esa bizga ta'sir etayotgan narsa yoki hodisaning barcha sifat va xususiyatlaridagi muhim bo'lmagan ikkinchi darajalilarni chetga surib, asosiy tomonlarini taqqoslash va fikran bir-biri bilan bog'lashdir.

3. Tafakkur obrazlari til bilan bog'liqdir. Bilish jarayonida paydo bo'layotgan har bir tushuncha til orqali ro'yobga chiqadigan ong omilidir.

Bilishning falsafiy talqiniga asoslanib, uning pedagogik-psixologik talqiniga e'tibor qaratamiz.

Bilish-psixologik aks etish jarayoni, bilimlar hosil bo'lishi va o'zlashtirilishning ta'minlovchisi. Bilish psixik bilish jarayonlari orqali amalga oshadi: sezgi, idrok, diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, nutq. Bilishning maqsadi esa xolis haqiqatga erishish bo'la oladi. Bilishning vazifasi – umumiy tarzda jamiyat rivojining muhim jihatlarini ochib berishdan iborat. Bu esa amaliy faoliyat natijasida ya'ni bilishning ikkinchi darajasini keltirib chiqaradi. Hissiy va mantiqiy bilishni bir qatorda qo'yish mumkin holda, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilish mumkin emas. Chunki ular bir-biriga o'tadi, shu bilan birga, bir-birini to'ldirib turadi. Bilish jarayoni oldindan bilish, xayol qilish, tahmin qilish kabi fikrlash faoliyati bilan qo'shib amaliy faoliyatda oldin qo'lga kiritilgan yutuqlarga, bilimlarga tayanib narsa-xodisalarning keyingi rivojini aniqlash

imkonini beradi.

Endi esa, faoliyat tushunchasiga aniqlik kiritishimiz zarur. Chunki biz yuqorida bilish nima ekanligini ham falsafiy, ham psixologik ta'rifini berishga harakat qildik.

Agar hayvonlarning hatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan chambarchas bog'lansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi. Hatti-harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, psixologiyada uni atash uchun maxsus atama – faoliyat atamasi qo'llaniladi. Faoliyat ehtiyoj, motiv (sabab)lar asosida kelib chiqib ma'lum bir maqsadga yo'nalgan bo'ladi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda faoliyat tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: faoliyat – kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir.

Faoliyat – voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish kishilarga ta'sir ko'rsatadi. Bilish ham ana shunday faoliyat turlaridan biri bo'lib, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishning asosi, mahsulidir. Insonning aql kuchi haqida, uning murakkabligi to'g'risida ko'plab afsona va kitoblar yozilgan. Kundan-kunga insonning butun qudrati yangidan-yangi dalillarga olib kelmoqda. Inson o'z hayotining birinchi davrida, ya'ni bolaligida esa – dunyodagi eng yordamga muhtoj jonzotdir.

Agar bir inson bolasini hayot yo'lini tahlil qiladigan bo'lsak, o'ziga xos tarixiy davrlar ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Buni insoniyat tarixini davrlashtirish bilan taqqoslaydigan bo'lsak, odamzot tarixining boshi – ibtidoiy jamoa tuzumi bilan uning bolalik davri o'rtasida o'xshashlikni yaqqol ko'ramiz. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixining qariyb to'qson foizini (90%) qamrab olsa, odamzotning bolalik davri uning hayotining 25% (yigirma besh foizini) tashkil etar ekan. Mashhur pedagog-psixolog olim N.F.Talizina bu jihatdan hayratlanib, nega insonning bolaligi shunday uzoq davom etishi xaqidagi savolni ko'ndalang qo'yadi. Haqiqattan ham, hech o'ylab ko'rganmisiz, nega insonning bolaligi shunday uzoq davom etadi. Bu savolga har kim turlicha javob beradi. Kimdir tabiat qonuni deya izohlasa, yana kimdir Yaratganning karomati bilan bog'laydi. Biz esa bu borada chuqur tadqiqot olib borgan olimlarning tadqiqotlariga asoslanib mulohaza yuritamiz. Olimlar bu savolni echimini odamzot hayotini hayvonot olami bilan taqqoslab topishga harakat qilganlar. Hammaga yaxshi ma'lum, qarg'a 200-300 yil yashaydi, bolaligi esa hammasi bo'lib bir necha oynigina o'z ichiga oladi. Boshqa qushlar va hayvonlar ham odatda hammasi bo'lib bir necha oydan so'ng bolaligini o'zining hayvonot dunyosida mustaqil hayot tarziga almashtiradi. Inson bolaligi esa yillar, o'n-o'n bir yoshlargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ko'pincha jamiyatga foyda keltiradigan tarzda tayyorlash faoliyati inson hayotining chorak qismini egallaydi. Tadqiqotlardan ma'lumki, jonivorlarda ajdodlari tomonidan egallangan tajriba, avlodlarga nerv mexanizmlari yordamida tayyor holda ko'chib o'tadi, ya'ni meros qoldiriladi. Jonivorlar tayyor xulq-atvor normalari bilan tug'iladi, unga hayot davomida orttirilgan tajriba bu normalarni aniq sharoitlardagina qo'llay olish uchun kerak bo'ladi. Inson esa tajribani meros sifatida qabul qilmaydi, uning taraqqiyoti

biologik jihatga qaram bo'lib qolmaydi, aksincha ijtimoiy hayot tarzidagina shakllanadi, ularsiz inson mavjud bo'la olmaydi. Bu haqida hayvonlar orasida o'sgan bolalar haqidagi voqealar yaqqol dalolat beradi. Ulardan biri haqida fransuz faylasufi E.Kondil'yak ham o'zining "Sezgilar haqida traktat"larida yozib qoldirgan. U litvalik ayiqlar orasida yashagan bola haqida yozadi. Bola gapira olmaydi, hech qanday aql-zakovatga ega emas, g'alati tovushlar chiqaradi, umuman, insonga o'xshamaydi.

Bu haqida ko'r-saqov tug'ilganlar ustida olib borilgan kuzatishlar ham gapirishga imkon beradi. Agar bunday bolalar bilan maxsus ish olib borilmasa, u holda o'zi o'tirishni o'rgana olmaydi, yura olmaydi hamda gapirish, fikrlash, inson faoliyatining murakkab shakllarida qatnashish imkoniyatiga ega bo'la olmaydi. Qachonki shunday ko'rish, eshitish qobiliyatisiz tug'ilganlar maktabga borganda, u holda ular bilan ish oddiy harakatlar – o'tirish, turish, yurishni o'rgatishdan boshlanadi.

N.F.Talizinaning fikricha, bularning hammasi va shularga o'xshash faktlar inson dunyoga hech qanday xulq-atvor shakllari bilan dunyoga kelmasligidan dalolat beradi. Uning taraqqiyoti ichkaridan tayyor ochiq emas yo'ldan boradi, insoniy qobiliyatlar esa garovga olinib, u tajriba yo'li orqali avlodlarga ajdodlar tomonidan to'plab boriladi (A.N.Leont'ev, N.F.Talizina). Inson ana shu sababli o'z ajdodlarini kifti(elka)sida ko'tarib yuradi, ularning ko'p asrlik tajribalaridan foydalanadi. Inson tayyor mantiqiy fikrlash bilan tug'ilmaydi, tayyor dunyo haqidagi bilimlarga ham ega bo'lmaydi. Lekin u boshqatdan mantiqiy fikrlash qonuniyatlarini, ma'lum jamiyat-tabi'at qonunlarini kashf etmaydi. Bularning hammasini u hayot jarayonida o'zlashtiradi. Inson tayyor holda tarixiy bilimlarga yoki musiqa chala olish qobiliyatiga ega bo'lib tug'ilmaydi: u ularni o'tmish dunyosiga, musiqa olamiga faol kirib borish orqali egallashi mumkin.

Agar bola keyinchalik tarix fanini o'rganishda o'zining shaxsiy hissasini qo'shsa, bilingki, bu sababsiz yuzaga kelmagan. Bu dastlab bolada ota-onaning yordami bilan amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtirilsa, so'ngra maxsus kishilar – o'qituvchilar ko'magida rivojlanib boradi. Maktabdagi ta'lim yillari – bu insoniyat tajribasining ilmiy, ahloqiy, estetik va boshqa shakllarini o'zlashtirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan yosh davridir. Bolaning kelajagi ham ana shu ijtimoiy tajribani o'zlashtirganiga, qanday o'zlashtirganiga bog'liq bo'ladi.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ғозиев Э. Психология. – Т.: Ўқитувчи, 1994. –Б. 136.
2. Шоумаров Ғ.Б. Оила психологияси. – Т.: Шарқ, 2008. – Б. 63.
3. Хасан Б.И. Конструктивная психология конфликта. СПб., М. "Изд-во" 2003.
4. Каршибаева Г.А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением //EurasianUnionScientists. – 2020. – Т. 1. – №. 10 (79). – С. 48-49.

5. Каршибаева Г. А., Юлдашева Г. Б. Конфликт как одно из значимых явлений психической жизни человека //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 459-464.
6. Каршибоева Г.А. Ўсмирларнинг хулқ-атворидаги ўзгаришнинг ижтимоий психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
7. Каршибоева Г.А. Ўқувчиларда касбий установкакаларнинг шаклланишининг психологик жихатлари //Журнал Педагогика и психологии в современном образовании. – 2022. – Т. 2. – №. 4.
8. Каршибоева Г. А. Характеристики мотивационных потребностей подростков с суицидальным поведением//Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №. 10-1 (79). – С. 48-49.
9. Каршибаева Г. А. Аспекты социально психологического исследования суицидального поведения подростков //Мир образования-образование в мире. – 2021. – №. 1. – С. 50-56.
10. Abduqodirovna G. Q., Burxonovich A. S., O'skanov son Abdurashid M. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 7. – С. 54-59.
11. Каршибоева Г.А.. Диагностика суицидального поведения у подростков //Вестник интегративной психологии. – 2021. – №. 22. – С. 84-89.
12. Каршибаева Г. А. Причины суицида и факторы риска //Психология интегральной индивидуальности в информационном обществе. – 2021. – С. 90-96.
13. Karshibayeva, G Diagnosis of suicidal behavior in adolescents. International Journal for Innovative Engineering and Management Research. A Peer Reviewed Open Access International Journal.// Vol 10 Issue03, March 2021 501-505 p.
14. Karshibayeva, G. The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2)
15. Karshibayeva, G. Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
16. Karshibayeva, G. Negative Socio-Psychological Factors Influencing the Personality of a Teenager. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | SSN 2792-3983 (online), Published under Volume: 1 Issue: 7 in December-2021
17. Каршибаева Г.А., Валиева Ч. Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №25 (том 4) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.
18. Каршибаева Г. А. Ўсмирларда суицидал хулқнинг олдини олишда амалга оширила-диган психопрофилактик чора-тадбирлари. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар” илмий услубий журнал, 2021 йил, махсус сон. 298-305 ст.
19. Каршибаева Г. А., Ибайдуллаева У.Р. Оила психологияси. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.

20. Каршибаева Г. А., Абдуасулов Р.А. Психологик маслаҳат. Ўқув қўлланма. “Баёз” нашриёти. Тошкент – 2022 й.
21. Qarshiboyeva, G. Ozligingni angla. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-52.
22. Qarshiboyeva, G. Ҳаётни севиб яшанг!. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-48.
23. Abdurasulov R.A., Karshiboeva G.A, Turakulov L.T. (2021). The importance of motivation to avoid failure in achieving the success of young football players. PSYCHOLOGY AND EDUCATION
24. Ибайдуллаева, У., & Абдуасулов, Р. (2021). Низолашув даражасини ўсмирларнинг характер хусусиятларига таъсири. *Общество и инновации*, 2(10/S), 499-505.
25. Ибайдуллаева, У. Р. Ўсмирлар ўртасидаги низолар ва уларни бартараф этиш. *Профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг I илмий-амалий конференцияси, МИРЗО УЛУГ ‘БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ЖИЗЗАХ ФИЛИАЛИ//2020/5//37-39б.*
26. Ibaydullayeva, U. (2022). DIQQATNI JAMLASH QOBILIYATINING PASAYISHI VA BUZILGAN KONSENTRATSIYANING OLDINI OLISHDA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6)
27. Ibaydullayeva, U., & Mamatqulova, Y. (2022). ЎСМИРЛАР ЎРТАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ОИЛАНИНГ ЎРНИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(6).
28. Ibaydullayeva, U. (2021). СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРУДНО ВОСПИТУЕМЫХ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (2).
29. Абдуасулов, Р. А., & Ибайдуллаева, У. Р. The influence of motivation on the formation of personality traits. *Journal of Physical Education and Sport (JPES)*.